



## 2017 yil yanvar-dekabr oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar-dekabr oylari bo'yicha Respublikada 34060,8 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,6 foizni tashkil etdi va 2016 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 4,6 foiz punktga kamaydi.

### RAQAMLAR:

Qurilish-montaj ishlari hajmi -  
**34060,8 mlrd.so'm**

Yirik qurilish-pudrat tashkilotlari ulushi -  
**34,9 foiz**


Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi -  
**36,3 foiz**

Qurilishda norasmiy sektorning ulushi -  
**28,8 foiz**

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 11887,0 mlrd.so'mni yoki 110,6 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,6 foiz punktga oshdi.

Ko'pgina viloyatlarda o'tgan yilning mos davriga nisbatan yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmini kamayishi kuzatildi. Shu jumladan, Toshkent viloyatida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 380,6 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 79,1 foizni, mos ravishda, Andijon viloyatida – 100,3 mlrd.so'mni yoki 84,2 foizni, Qashqadaryo viloyatida – 641,6 mlrd.so'm yoki 85,7 foizni, Sirdaryo viloyatida – 45,4 mlrd.so'm yoki 84,5 foizni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari (mlrd.so'm)




**Yirik qurilish tashkilotlari o'sish sur'atining oshishiga yirik qurilish loyihalar bo'yicha qurilish ishlarining bajarilishi sabab bo'ldi, shu jumladan:**


- **Gazni qayta ishlash zavodining qurilishi va Qandim konlari guruhini o'zlashtirish, Xauzak va Shodi konlarini o'zlashtirish, shuningdek, "Kuwachi-Alat" konlarini kengaytirish;**
- **Avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish;**
- **Jizzax shahrida avtomobil zavodi qurilishi;**
- **Hududlarda neft va gaz uchun keng ko'lamli qidiruv burg'ulash ishlarining olib borilishi;**
- **Karbamid va ammiak ishlab chiqarish zavodi qurilishi;**
- **Sintetik yoqilgi ishlab chiqarish zavodi qurilishi va boshqalar.**

**Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlarining 36,3% ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,0 %ni tashkil etdi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun turar joylar qurish, avtomobil yo'llarini yangi qurilishi, rekonstruksiya va ta'mirlash, ijtimoiy soha obyektlari (maktablar, maktabgacha ta'lim muassasalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqda.**

### 2017 yilning yanvar-dekabrida qurilish ishlari umumiy hajmida hudularning ulushi



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari  
(mlrd.so'mda)**



**2017 yilning yanvar-dekabr oylarida  
hududlar kesimida qurilish ishlari**

	Jami		shu jumladan: Hududiy qurilish pudrat tashkilotlari	
	mlrd. so'm	o'sish sur'ati,	mlrd. so'm	o'sish sur'ati,
		foizda		foizda
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>34060,8</b>	<b>105,6</b>	<b>13455,8</b>	<b>110,5</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1289,9	103,5	631,8	97,1
viloyatlar:				
Andijon	1761,8	101,9	895,7	105,1
Buxoro	2423,2	101,4	854,6	109,4
Jizzax	1007	100,1	554,1	101,4
Qashqadaryo	2770,6	100,4	1373,6	116
Navoiy	1284,6	103	548,2	112,4
Namangan	1552,9	107,6	757	113,8
Samarqand	2351,1	95,6	1035	110,4
Surxondaryo	1773,9	104,1	1007,9	119,3
Sirdaryo	526,5	95,1	364,4	98,2
Toshkent	1827,8	100,5	726	103,2
Farg'ona	2187,6	105,9	1283,4	111,9
Xorazm	1270,8	100	637,8	101,1
Toshkent sh.	5696	110,9	2786,2	117,9



## Mulkchilik shakllari

**Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 32436,3 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 95,2 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 foiz punktga kamaydi.**

**Joriy davrda respublika norasmiy sektorida o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atining kamayishi Sirdaryo viloyatida (87,8 foiz), Samarqand viloyatida (96,3 foiz), Xorazm viloyatida (92,9 foiz), Jizzax viloyatida (90,9 foiz) kuzatildi.**

### Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan %da)



**O'zbekiston Respublikasi  
Davlat statistika qo'mitasi  
Investitsiyalar va qurilish  
statistikasi boshqarmasi**

Nashr uchun mas'ul:

**J.Saipov**

Aloqa telefoni:

(0371) 230-80-56